

GLOBALLASHUV DAVRIDA AXBOROT UZATISHNING QULAY TARAFLARI VA MUAMMOLI TARAFLARI

Jumaboyeva Madina

Xorazm viloyati, Urganch tumani, 49-sonli maktab, 11-sinf o'quvchisi

Email: madinajumaboyeva05@gmail.com

Tel. raqam: 94 859 25 05

Annotatsiya: ushbu maqolada globallashuv davri bilan soʻz boshlandi va globallashuv davrida axborot uzatishdagi yangilik, qulayliklar va bazi vaziyatlarda duch keladigan muommolar togʻrisida soʻz yuritildi.

Kalit soʻzlar: gʻarazli maʼlumotlar, turli buzgʻunchi gʻoyalar, odob-axloqni yemiruvchi illatlar, axborot inqilobi, demokratik usullari, ijtimoiy qarorlar, maʼnaviy tarbiya, internet tarmogʻi, axborotni uzatish .

Prezidentimiz qayd etganlaridek, bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qoʻshnilar, balki jahon miqyosida boshqa mintaqa va hududlar bilan chambarchas bogʻlanib borayotganidadir. Biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmaydi.

Globallashuv - bu sayyoramizning turli mintaqalari birlashtirilgan va madaniyat, iqtisodiyot, siyosat yoki sogʻliqni saqlash kabi sohalarda doimo oʻzaro taʼsir oʻtkazadigan jarayondir. Bu dunyoning turli mamlakatlarida keng tarqalgan va hududlarni oʻzaro bogʻliqligini va qaramlik rishtalarini saqlab turishga imkon beradigan umumiy tartibdir. Globallashuv hayot surʼatlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir. Yana, globallashuv millat va elatlar, mamlakatlarning madaniy, maʼnaviy, iqtisodiy jihatidan uygʻunlashuviga olib keladigan jarayondir. Taʼkidlash kerakki, global axborot oqimi sharoitida axborot kommunikatsiya texnologiyalari yutuqlaridan samarali foydalanish natijasida ulkan yaratuvchanlik vazifalari bajarilmoqda. Shu bilan bir qatorda, millat va milliy qadriyatlar, urf-odatlar, anʼanalar, tarixiy va madaniy meros barqarorligi va vorisiyligini izdan chiqarishga yoʻnaltirilgan buzgʻunchi gʻoyalar va tajovuzkor mafkurali vayronkor gʻoyalar targʻibotchilari faoliyatining rivojlanishga xizmat qilmoqda, desak mubolagʻa boʻlmaydi.

Axborotni uzatish — bu jismoniy jarayon boʻlib, uning yordamida belgilar (axborot berishi mumkin boʻlgan maʼlumotlar) makonda koʻchiriladi yoki subʼektlarning belgilarga jismoniy kirishi amalga oshiriladi. Axborotni uzatish — bu oldindan tashkil etilgan texnik hodisa boʻlib, uning natijasi bir joyda (axborot manbai deb ataladigan) yoki boshqa joyda (axborot qabul qiluvchi) mavjud boʻlgan axborotlarni takrorlashdir. Axborot uzatishni amalga oshirish uchun, bir tomondan, „manba“ va „qabul qiluvchi“ oʻrtasida makon va vaqt ichida harakat qilish qobiliyatiga ega boʻlgan „xotira qurilmasi“ yoki „tashuvchi“ boʻlishi kerak. Boshqa

tomondan, ma'lumotni „tashuvchi“ga ko'chirish va undan ko'chirib olish qoidalari va usullari „manba“ va „qabul qiluvchi“ ga oldindan ma'lum bo'lishi kerak.

Hozirgi tahlikali zamonda internet tarmog'i orqali tarqatilayotgan g'arazli ma'lumotlar, turli buzg'unchi g'oyalari, odob-axloqni yemiruvchi illatlar har bir ongli kishini tashvishga solishi kerak. Xususan, mentalitetimizga mos bo'lmagan, turli jangovar, ba'zan qahramonlik, vahshiylikka o'tib ketadigan o'yinlar ham farzandlarimizning axloqiy-estetik tarbiyasiga yomon ta'sir ko'rsatishini inkor etib bo'lmaydi. To'g'ri, ular bir qarashda oddiy o'yindek tasavvur uyg'otadi, ammo zo'ravonlik g'oyalari, yovuzlik kayfiyatini uyg'otishi juda ko'p salbiy oqibatlariga olib kelgani xususida ham juda ko'plab hayotiy misollar bisyor. Shuningdek, yoshlar ongiga kuchli ta'sir etuvchi axborotlar, yot g'oyalarni, g'arb hayot tarziga xos, o'zbek mentalitetiga zid odatlarni, ko'nikmalarni, g'arb yoshlarining kiyinishini, odatlarini targ'ib etadigan, maqolalar, kliplar, filmlarda ham yaqqol namoyon bo'ladi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar ayni damda o'zidan olisda bo'lgan yaqinlari bilan muloqotda bo'lish va yangi do'stlar orttirishidan tashqari, internetda o'zini turli ijtimoiy rollarda sinab ko'rishi mumkin. Bugungi kun yoshlari taraqqiy etgan texnologiyalar olamida cheksiz takliflar chegarasida yashamoqda, desak o'rinlidir. Axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosati axborot resurslari, axborot texnologiyalari va axborot tizimlarini rivojlantirish hamda takomillashtirishning zamonaviy jahon tamoyillarini hisobga olgan holda milliy axborot tizimini yaratishga qaratilgan. Jumladan, „Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida“gi Qonunning qabul qilinishi har kimning axborotni erkin va moneliksiz olish hamda foydalanish huquqlarini amalga oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, Prezidentimizning 2021-yil 26-martda qabul qilingan „Ma'naviyat rivojini ta'minlash uchun tubdan takomillashtirishning chora-tadbirlari to'g'risida“gi qarorida ham jamiyatda sog'lom dunyoqarash, oila, ta'lim tashkilotlari, mahallalarda ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash, internetdan foydalanish madaniyatini oshirish borasidagi ustuvor yo'nalishlar belgilangan.

Kimki axborotga ega bo'lsa, u, dunyoga egalik qiladi”,- degan fikr bugungi kunda barcha tomonidan e'tirof etilgan. Shunday ekan, har bir fuqaromizda axborot olami imkoniyatlaridan oqilona foydalanish malakasini shakllantirish, ularda axborot iste'moli madaniyatini tarbiyalash hayotiy-amaliy ahamiyatga ega. Buning uchun esa, eng avvalo, har bir inson u yoki bu axborotni eshitar ekan, hyech bo'lmaganda „Bu axborotni kim uzatayapti?“, „Nima uchun uzatayapti?“ va „Qanday maqsadda uzatayapti?“ degan savollarni o'z-o'ziga berishi, unga asosli javob topishi kerak bo'ladi. Ana shundagina turli g'oyalari ta'siriga tushib qolishning oldi olinadi.

Xulosa qilib aytganda, axborotlashgan jamiyat xususiyatlari inson va jamiyat hayotidagi o'rni masalasi keyinchalik qator mutaxassislarining diqqat markazida bo'ldi, bu borada yangi nazariyalar ishlab chiqildi. Mazkur qarash va konsepsiyalarda, asosan, ikki fikr ustuvorlik qiladi: Axborot inqilobi taraqqiyotning tabiiy va qonuniy natijasi bo'lib, uning jarayonida butun insoniyat tamaddunining yagona va yaxlit axborot

makoni shakllanadi. Bunda hokimiyatning “shaffofligi” (ochiqligi), axborotdan barcha uchun yalpi foydalanish imkoniyati hamda ijtimoiy qarorlar qabul qilishning demokratik usullariga asoslangan jamiyat boshqaruvining gumanistik tamoyillari tantana qiladi. Aslida axborot sohasidagi globallashtirish inson uchun dunyoning barcha hududlaridagi odamlarning oʻzaro muloqoti uchun, ilm-fan va madaniy boyliklarni oʻzlashtirish uchun ulkan imkoniyatlar yaratadigan jarayondir`.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ричард Рид (Richard Read). Основы теории передачи информации. М.: «Вильямс», Lua xatosi: bad argument #2 to 'formatDate': invalid timestamp 'Yanvar'. — ISBN 0-13-521022-4.
2. Vohidov E. Soʻz latofati. –T.: Oʻzbekiston, 2014.
3. Gulbinskiy N., Sorokina Ye. «Kratkiy kurs» dlya effektivnykh politikov. – Avanti, 1999.
4. Gundarin M.V. Teoriya i praktika svyazey s obshchestvennostyu: osnovy media-rileyshnz. Ucheb. posobiye. –M.: Forum: infra-m, 2007.
5. Doʻstmuhammad X. Axborot – moʻjiza, joziba, falsafa. –T.: Yangi asr avlodi, 2013.
6. Jahon jurnalistikasi tarixi. Darslik. F.Moʻminov, A.Nurmatov, T.Eshbekov va boshq. –T.: Fan va texnologiyalar, 2008.
7. Joʻrayev N. Tafakkurdagi evrilish. T.: Sharq, 2001.